



UDK: 316.36:347.62(575.1)

Gulchehra TAGAYMURATOVA,
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi
E-mail: Gulchehratogaymuratova@gmail.com

Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD D.Xolnazarova taqrizi asosida

QARINDOSHLAR O'RTASIDAGI NIKOHGA SOTSIOLOGIK VA BIOETIK YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh masalasiga kompleks yondashuv asosida nazar tashlanadi. Masala sotsiologik, bioetik, tibbiy, huquqiy va madaniy nuqtai nazarlardan tahlil etiladi. Maqolada Islom huquqi va «Oila kodeksi»ning 16-moddasi asosida nikoh tuzishga monelik qiluvchi holatlarning bioetik asoslari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, muallif Janubiy Koreya, AQSh, Tojikiston, Saudiya Arabistoni, Afg'oniston kabi mamlakatlarda yaqin qarindoshlar nikohini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlar, ta'qiqlar va sog'liqni saqlash siyosati misolida solishtirma tahlil olib boradi. Maqolada jamiyatdagi mavjud qarashlar, urf-odatlar, diniy va fiqhiy ta'limotlar, ijtimoiy normalar bilan yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh o'rtasidagi ziddiyatlar yoritiladi. So'rovnoma va empirik ma'lumotlar orqali O'zbekistonning ayrim hududlarida bunday nikohlarga bo'lgan munosabat, ularning ijobiy va salbiy oqibatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Yaqin qarindoshlar nikohi, bioetika, sotsiologik tahlil, irsiy kasalliklar, huquqiy cheklovlar, an'anaviy madaniyat, sog'lom avlod.

SOCIOLOGICAL AND BIOETHICAL APPROACHES TO MARRIAGE BETWEEN RELATIVES

Annotation

This article examines the issue of marriage between close relatives from a comprehensive approach. The issue is analyzed from sociological, bioethical, medical, legal and cultural perspectives. The article analyzes the bioethical foundations of circumstances that prevent marriage based on Islamic law and Article 16 of the Family Code. At the same time, the author conducts a comparative analysis of legal mechanisms, prohibitions and health policies regulating marriage between close relatives in countries such as South Korea, the USA, Tajikistan, Saudi Arabia, Afghanistan. The article highlights the conflicts between existing views, customs, religious and jurisprudential teachings, social norms and marriage between close relatives. The attitude towards such marriages in some regions of Uzbekistan, their positive and negative consequences are analyzed through a questionnaire and empirical data.

Key words: Marriage between close relatives, bioethics, sociological analysis, hereditary diseases, legal restrictions, traditional culture, healthy generation.

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЕ И БИОЭТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К БРАКУ МЕЖДУ РОДСТВЕННИКАМИ

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос о браке между близкими родственниками с точки зрения комплексного подхода. Анализируется проблема с социологической, биоэтической, медицинской, юридической и культурной точек зрения. Анализируются биоэтические основы обстоятельств, препятствующих заключению брака, на основе исламского права и статьи 16 Семейного кодекса. Автор проводит сравнительный анализ правовых механизмов, запретов и политики в области здравоохранения, регулирующих брак между близкими родственниками в таких странах, как Южная Корея, США, Таджикистан, Саудовская Аравия, Афганистан. В статье освещаются противоречия между существующими взглядами, обычаями, религиозными и юридическими учениями, социальными нормами и браком между близкими родственниками. Анализируется отношение к таким бракам в некоторых регионах Узбекистана, их положительные и отрицательные последствия с помощью анкетирования и эмпирических данных.

Ключевые слова: брак между близкими родственниками, биоэтика, социологический анализ, наследственные заболевания, правовые ограничения, традиционная культура, здоровое поколение.

Kirish. Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh (insestoz yoki konsangvin nikohlar) – bu qarindoshlik darajasi ikkinchi (amma, tog'a, xolalar) yoki uchinchi avlod (singillar farzandlari, aka-uka farzandlari) darajasidagi shaxslar o'rtasida tuziladigan nikohdir. Bu turdagi nikohlar genetik jihatdan o'ta xavfli hisoblanadi, chunki ular natijasida tug'iladigan farzandlarda bir qator tug'ma kasalliklar, nogironlik, aqliy zaiflik, rivojlanishning kechikishi va boshqa muammolar kuzatiladi.

O'zbekistonning ayrim hududlarida hanuzgacha yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh amaliyoti uchrab turadi. Xususan, oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, urug'-qarindoshlik rishtalarini uzmaslik va eng muhimi, mavjud mol-mulkni "begonalar" qo'lga o'tib ketishidan saqlash kabi omillar bunday turmush qurishni oqlab kelgan. Ushbu

qarashlar an'anaviy dunyoqarashning bir qismi sifatida mustahkam o'rnatilgan bo'lsa-da, ularning zamonaviy ijtimoiy va tibbiy oqibatlari juda jiddiy tahlilni talab etadi.

Har bir jamiyatda nikohni huquqiy tartibga solish nafaqat oilaviy munosabatlarni, balki inson salomatligi, kelajak avlod sog'lomligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ham nikoh tuzishga nisbatan muayyan cheklovlar belgilangan. Xususan, "Oila kodeksi"ning 16-moddasida nikoh tuzishga monelik qiluvchi holatlar aniq bayon etilgan [1].

Islom ulamolari va fiqh ilmida "ahli nikoh bo'lmagan ayollar" yoki "harom qilingan ayollar" tushunchasi mavjud bo'lib, u muayyan shaxs uchun shar'iy jihatdan nikoh tutish taqiqlangan ayollar toifasini anglatadi. Bu ta'rif Qur'on

karimda aniq va mufassal bayon etilgan. Xususan, "An-Niso" surasining 23-oyatida, nikohlash mumkin bo'lmagan ayollar ro'yxati keltiriladi [2].

Prezidentimiz Sh.Mirziyayev "Dunyoda isbot talab qilmaydigan bir haqiqat bor: har qanday mamlakat taraqqiyoti sog'lom va bilimli avlodga bog'liq"[3] degan jumlasida davlat va jamiyatning bu boradagi ma'suliyatni yorqin ko'rsatib beradi.

Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh masalasi dunyo mamlakatlarida turlicha baholanadi va huquqiy jihatdan har xil tarzda tartibga solinadi. Jamiyat va davlat sog'lom avlod, genetik xavfsizlik, bioetik me'yorlarni ta'minlash uchun Janubiy Koreyada yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh Fuqarolik kodeksi (Civil Act) asosida qat'iyani taqiqlangan. 2005 yilgacha hatto "bir urug'"ga mansub bo'lgan kishilarning turmush qurishi ham cheklangan edi. Koreya Respublikasi Fuqarolik kodeksining 809-moddasi (yangi tahrir 2005 yilda) bevosita qarindoshlik asosida nikohni cheklaydi [4].

Ayrim AQSh shtatlarida, jumladan Men shtatida, ikkinchi darajali qarindoshlar – ya'ni amma, xola, tog'a va amaki farzandlari o'rtasidagi nikohlarga ma'lum shartlar asosida ruxsat beriladi. Biroq, bunday nikohlarni rasmiylashtirishdan avval, tomonlardan tibbiy-ma'rifiy maslahat olish va genetik xavflar bo'yicha xulosa taqdim etish talab etiladi. Bu shart genetik xavfning oldini olish, sog'lom avlodni ta'minlash va turmush qurish masalasida shaxslarni ongli qaror qabul qilishga yo'naltirilgan huquqiy mexanizm sifatida qaraladi [5].

Adabiyotlar tahlili. Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar masalasiga sotsiologik tadqiqot doirasida to'rt asosiy nazariy yondashuv orqali izoh berish mumkin: strukturaviy-funksionalizm, tashqi determinizm va ijtimoiy konstruktivizm, biyoetik paradigma hamda simvolik interaksionizm. Ushbu yondashuvlarning har biri muammoning turli qirralarini ochib beradi va ularning uyg'unlashtirilgan tahlili orqali masalaning kompleks mohiyatini anglash imkoniyati yuzaga chiqadi.

Strukturaviy-funksionalizm nazariyasi (Émile Durkheim [6], Talcott Parsons [7]) jamiyatni bir-biriga bog'langan va o'zaro muvozanatda faoliyat yurituvchi ijtimoiy institutlar majmui sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvga ko'ra, har bir ijtimoiy hodisa, shu jumladan nikoh institutining ham, jamiyatda muayyan funksiyani bajarishi lozim. Ana shu funksiyalar orqali jamiyat barqarorligi, ijtimoiy tartib va qadriyatlar tizimi saqlab qolinadi.

Tashqi determinizm va ijtimoiy konstruktivizm yondashuvi. Tashqi determinizm ijtimoiy falsafadagi asosiy konsepsiyalardan biri bo'lib, unga ko'ra inson qarorlari va xatti-harakatlari ichki istaklardan ko'ra ko'proq tashqi ijtimoiy omillar – jamiyat bosimi, an'analari, qadriyatlar, oila yoki mahalla talablari orqali belgilanadi. Bu qarashga asoslangan holda, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar shaxsiy erkin tanlov emas, balki ijtimoiy me'yorlarga moslashish natijasi sifatida shakllanishi mumkinligi ko'rsatib o'tiladi.

Bunga yaqin yondashuv sifatida Peter L. Berger va Thomas Luckmann tomonidan 1966 yilda ishlab chiqilgan ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, "haqiqat" insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida quriladi. Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar, ushbu nazariy yondashuv nuqtai nazaridan, faqatgina biogenetik hodisa yoki shaxsiy qaror emas, balki ijtimoiy konstruksiya – ya'ni, jamiyat ongida shakllangan "normal" amaliyotdir [8].

Metodologiya. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi oila sotsiologiyasi va bioetika fanlarining integratsion yondashuviga tayangan. Tadqiqotda oilaviy munosabatlarning sotsiologik nazariyalari (T. Parsonsning struktur-funksional yondashuvi i) hamda bioetikaning zamonaviy tamoyillari — inson genetik xavfsizligi, axloqiy mas'uliyat va sog'lom avlodni ta'minlash prinsiplariga asoslanildi.

- Tadqiqotning obyekti — yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh hodisasi;

- Predmeti - bu nikohlarning sotsiologik va bioetik jihatdan jamiyat hayotiga ta'siri;

- Subyekti — turli ijtimoiy guruh vakillari, tibbiyot xodimlari va diniy mutaxassislar, sotsiolog va bioetika mutaxassislarining qarashlari hisoblanadi.

Tadqiqotda sotsiologik va bioetik tahlilning kompleks yondashuvi qo'llanildi.

Shuningdek sotsiologik so'rovnomma (anketa usuli) – tadqiqotning asosiy empirik manbasi sifatida bir necha hududda tashkil etildi.

Tahlil va natijalar. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, bir-biriga begona bo'lgan er-xotinning tug'ilajak bolasiga qaraganda qarindoshlar o'rtasida tug'iladigan go'dakda irsiy kasallik xavfi 3-4 baravar ko'pligi va turli nuqsonlar kuzatiladi. Xastaliklar bolaning yoshligida bilinmay, vaqt o'tishi bilan yuzaga chiqishi ham mumkin. Tahlillar natijasiga e'tibor bersak, tug'ma nuqson va irsiy kasalliklar bilan tug'ilgan bolalarning 9,7 foizini yaqin qarindoshlar nikohidan dunyoga kelgan chaqaloqlar tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Surxondaryo viloyatida 31,6 foizni, Qashqadaryo viloyatida 26,0 foizni, Sirdaryo viloyatida 13,0 foizni, Andijon viloyatida 12,0 foizni, Samarqand viloyatida 10,3 foizni, Buxoro viloyatida 10,1 foizni tashkil qiladi [9].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi o'n yilliklarda rivojlangan mamlakatlarda yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar soni keskin kamaygan. Bu holatga, bir tomondan, aholining tibbiy-ma'rifiy savodxonligining oshishi, ikkinchi tomondan esa, ushbu amaliyotga nisbatan joriy etilgan huquqiy chekllovlar ta'sir ko'rsatgan. Xususan, Xitoy, Tayvan, Janubiy Koreya va Filippin kabi davlatlarda, shuningdek, AQShning 24 ta shtatida yoqin shajaraga mansub qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzishni huquqiy jihatdan cheklovchi normalar mavjud. Ayni paytda, rivojlanayotgan mamlakatlarda qarindoshlik nikohlari hali ham keng tarqalgan holda saqlanib qolmoqda. Yaqin Sharq mintaqasida bu holat ayniqsa kuzatilmoqda: masalan, Saudiya Arabistonida bunday nikohlar umumiy nikohlar sonining 70 foizigacha, Iroqda 33 foizigacha, Afg'onistonda esa taxminan 30-40 foizigacha etgani qayd etilgan. Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar natijasida tug'ma nuqsonlar, o'lik tug'ilish va perinatal o'lim holatlarining ortishi kuzatilgan. Shu kabi salbiy oqibatlar fonida 2016 yildan boshlab Tojikiston Respublikasida ham qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarga qonunan cheklov joriy etilgan. Bu chora-tadbirlar sog'lom avlodni ta'minlash, irsiy kasalliklar tarqalishining oldini olish va jamiyatda bioetik prinsiplarni mustahkamlashga qaratilgandir [10].

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, har yili yuzlab nogiron bolalar qarindoshlar o'rtasidagi nikoh natijasida dunyoga kelmoqda. Bu esa nafaqat sog'liq uchun, balki butun oilaviy tuzilma uchun ham katta muammoga aylanmoqda. Bir oilaning ichida tug'ilgan bir bola faqat tibbiy emas, balki ruhiy, ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan ham barcha a'zolar hayotini keskin o'zgartiradi.

Bunday muammolarni olidin olish maqsadida mamlakatda yaqin qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzishning huquqiy asoslari aniq bo'lishi kerak. Nikoh oldidan genetik maslahat olish mexanizmi yo'lga qo'yilishi lozim va urf-odatlariga qarshi chiqmasdan, ma'rifiy ishlar orqali xavfli oqibatlar tushuntirilishi darkor. Bu muammoni faqat tibbiy yoki diniy tomondan emas, sotsiologik, bioetik va inson huquqlari nuqtai nazaridan ham o'rganish muhim.

Tadqiqot davomida O'zbekistonning ayrim hududlarida (Surxondaryo, Qashqadaryo, Sirdaryo) o'tkazilgan intervyu va sotsiologik so'rovlar shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik holatlarda qarindoshlar o'rtasida nikoh tuzish "ishonchli",

“begonadan himoyalangan”, “naslni saqlovchi” va “mulkni qo'riqlovchi” yo'l sifatida qabul qilinadi. Bu qarashlar o'z navbatida, jamiyatdagi qadriyatlar, ma'naviy stereotiplar va tarixiy an'analar asosida barpo bo'lgan ijtimoiy ong mahsulidir.

Ijtimoiy konstruktivizm nazariyasiga ko'ra, bu kabi normalashtirilgan ijtimoiy harakatlar vaqt o'tishi bilan avloddan-avlodga o'tib, mustahkam axloqiy va madaniy normalarga aylanadi Bioetika – bu sog'liqni saqlash, tibbiyot, genetik va biotexnologiya sohalaridagi axloqiy masalalarni o'rganuvchi mutaxassislik sohasi bo'lib, u inson qadr-qimmat, huquqlari va sog'lom turmush huquqi bilan bog'liq masalalarga asoslangan. Ushbu yondashuv tibbiy qarorlar qabul qilishda nafaqat klinik samaradorlikni, balki axloqiy-huquqiy tamoyillarni ham hisobga olishni talab qiladi. Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar kontekstida bioetik yondashuv quyidagi to'rtta tamoyil asosida muhim rol o'ynaydi:

1. Zarar etkazmaslik (non-maleficence). Bu tamoyilga ko'ra, tibbiy va ijtimoiy munosabatlarda shaxsga ongli ravishda zarar etkazmaslik lozim. Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar irsiy mutatsiyalar, tug'ma nuqsonlar va jismoniy/aqliy nogironliklar xavfini oshiradi. Demak, shunday nikoh tufayli dunyoga kelgan bolaning sog'lig'iga zarar etkazilishi mumkin bo'lsa, bu axloqiy jihatdan qabul qilib bo'lmaydigan holat hisoblanadi.

2. Foydalilik (beneficence). Har qanday amal, ayniqsa tibbiy yoki reproduktiv qaror inson manfaatlarini uchun xizmat qilishi lozim. Agar bunday nikoh natijasida farzandda xastalik paydo bo'lishi, ota-onaning qiyinchiliklarga duchor bo'lishi ehtimoli bo'lsa, ushbu nikoh amaliyoti foydali emas, balki zararlidir. Bu esa tamoyilga zid holatni anglatadi.

3. Avtonomiya (autonomy). Avtonomiya insonning o'z tanlovini mustaqil, bosimsiz va axborotga tayangan holda amalga oshirish huquqini nazarda tutadi. Amalda esa yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh ko'pincha ota-onalar, urug', mahalla yoki madaniy bosim ta'sirida tuziladi. Bunday sharoitda shaxsiy erk va ixtiyor cheklanadi, bu esa inson huquqlariga zid hisoblanadi.

4. Adolat (justice). Adolat tamoyili barcha insonlar uchun teng huquq va imkoniyatlarni kafolatlashni talab qiladi. Agar tug'ma kasallik bilan tug'ilgan bola butun umr davomida ijtimoiy, ta'limiy va tibbiy cheklavlarga duchor bo'lsa, bu nafaqat oila, balki jamiyat uchun ham adolatsizlik shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Shu tufayli bioetik yondashuvda yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh faqat shaxsiy tanlov emas, balki avlod salomatligi, jamiyat barqarorligi va axloqiy mas'uliyat nuqtai nazaridan ham tahlil qilinishi lozim. Bunday yondashuv inson huquqlarini ta'minlash, sog'lom avlodni tarbiyalash va barqaror reproduktiv madaniyatni shakllantirishda muhim ilmiy va amaliy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh natijasida genetik xavf 3-4 barobar oshishi va bunda sog'lom bo'lmagan avlodning tug'ilishi ehtimoli yuqoriligi ilmiy tadqiqotlarda tasdiqlangan[11]. Ushbu holat farzandning yashash sifati,

psixik va jismoniy rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi. Shuningdek, bu bolalarning doimiy parvarish va tibbiy xizmatga muhtoj bo'lishi nafaqat oilaga, balki sog'liqni saqlash tizimi va jamiyatga katta ijtimoiy-iqtisodiy yuk bo'lib tushadi.


Bioetika, o'z navbatida, inson salomatligini himoya qilish, kelajak avlodning hayot sifati va huquqlarini ta'minlash, shuningdek, genetik xavflarni kamaytirish borasida muhim nazariy va amaliy poydevor sifatida xizmat qiladi [12]. Bunday yondashuv orqali yaqin qarindoshlar nikohining salbiy oqibatlarini faqat tibbiy emas, balki axloqiy, ijtimoiy va huquqiy mezonlar asosida ham baholash imkoniyati yaratiladi.

Ushbu masala yuzasidan yurtdoshlarimizning yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohga munosabati, bu masaladagi axborotlilik darajasi, shaxsiy yoki oilaviy tajribasi, irsiy kasalliklar holatlari va ularning ehtimoliy sabablari haqidagi fikrlari tadqiq etildi. Sotsiologik so'rovnoma (anketa usuli) – tadqiqotning asosiy empirik manbasi sifatida bir necha hududda tashkil etildi. Jumladan, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Toshkent shahrida 18 yoshdan katta aholi o'rtasida maqsadli tanlama asosida so'rovnoma o'tkazildi.

So'rovnoma natijalari orqali aholining bioetik tushunchalari, jamiyatdagi madaniy an'analar va sog'liqqa oid xavotirlari o'rtasidagi murakkab va ko'p qatlamli o'zaro bog'liqliklar tasniflandi. Tadqiqot jarayonida jamiyatda yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarga bo'lgan munosabat faqat diniy yoki an'anaviy qarashlar bilan emas, balki sog'lom avlodga bo'lgan intilish, tibbiy xavotirlar va bioetik echimlarga ham bog'liq ekan namoyon bo'ldi.

Ushbu empirik ma'lumotlarning tahlili asosida qarindosh nikohlarining ijtimoiy ildizlari – urf-odatlar, mulkni saqlashga intilish, tanish-bilishlikka asoslangan ishonch kabi omillar chuqur o'rganildi. Shuningdek, so'rov ishtirokchilari tomonidan tilga olingan ijobiy oqibatlar (oilaviy yaqinlik, iqtisodiy barqarorlik) va salbiy holatlar (irsiy kasalliklar, ijtimoiy tanqid, psixologik muammolar) mazmunan tahlil qilindi.

Respondentlarning qarindoshlar o'rtasida nikoh qurishga munosabati o'rganilganda aniqlandiki, 60% (11% + 49%) respondentlar qarindoshlar o'rtasidagi nikohga qarshi ekanini bildirgan. Bu holat, aholida sog'lom salomatlik madaniyati va bioetik ong shakllanayotganini ko'rsatadi. 11% respondentning befarq munosabati esa jiddiy targ'ibot-tashviqot ishlariga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Bu guruh odatda ma'lumotsizlik yoki madaniy sukut tufayli passiv munosabatda bo'ladi. Qarindoshlar o'rtasida nikoh qurishni qo'llab-quvvatlovchilar 25%ni tashkil etdi. Bu yuqori ko'rsatkich hisoblanadi va yaqin qarindoshlik nikohlariga ijobiy munosabat hali ham kuchli ekanini anglatadi. Buning sabablari an'anaviy qarashlar, jamiyatdagi ma'lumot tanqisligi, mutaxassis maslahati yoki tibbiy xulosa olish madaniyatining pastligi, oilaviy-iqtisodiy manfaatlarni ustuvor ko'rishi bo'lishi mumkin.(1-rasm).



Rasm 1. Respondentlarning qarindoshlar o'rtasida nikoh qurishga munosabati

Ushbu natijalar yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlar faqat nazariy muammo yemas, balki real hayotda uchrab turgan ijtimoiy-bioetik muammo yekanini tasdiqlaydi. Bu

holatni rad yetish yemas, asosli ilmiy yondashuv, axborot-ma'rifat ishlarini kuchaytirish, va xavfsiz oilaviy muhitni shakllantirishga qaratilgan siyosat yuritish lozim.

Xulosa. Olingan natijalar qarindoshlik nikohlar masalasiga xolis, ko'p jihatli va ilmiy yondashuv zarurligini ko'rsatdi hamda kelgusida davlat siyosati, jamoatchilik ma'rifati va sog'liqni saqlash tizimida kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi so'rov natijalari yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohga qarshilik bildiruvchi fikrlar ustun yekanini ko'rsatadi. Lekin 25% qo'llab-quvvatlash holati hali ham bu muammoning dolzarbligini inkor yeta olmasligini tasdiqlaydi. Ushbu masalani oldini olisish maqsadida ta'lim muassasalarida bioetik tarbiyani kuchaytirish, nikoh oldi tibbiy maslahatni majburiy qilisish, ommaviy axborot vositalarida sog'lom oila va irsiy salomatlik mavzusida keng tarqatuv ishlarini olib borish, mahalla va diniy faollar ishtirokida ma'rifiy suhbatlar tashkil yetish zarurati borligini belgilaydi.

Tadqiqot doirasida olib borilgan sotsiologik so'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, aholining salmoqli qismi yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarga qarshi yekanini bildirgan bo'lsa-da, 25%ga yaqin respondentlar bunday nikohlarni qo'llab-quvvatlashini aytgan. Bu yesa, mavzu hali ham jamiyatda dolzarb yekanini va keng ko'lamli ma'rifiy, huquqiy, tibbiy ishlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi. Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh masalasiga sotsiologik, bioetik, madaniy va huquqiy nuqtai nazarlardan yondashish orqali muammoning chuqur mohiyatini anglash va uni hal yetish mexanizmlarini shakllantirish mumkin. Ushbu tahlillar asosida kelgusida ta'lim, sog'liqni saqlash, diniy-ma'rifiy ishlar va jamoatchilik ongini oshirishga qaratilgan kompleks strategiyalar ishlab chiqish zarur.

ADABIYOTLAR

1. <https://lex.uz/acts/-104720#:~:text=16%2Dmodda.%20Nikoh,30%2Dmoddasi>.
2. https://islom.uz/mano_tarjima/4
3. <https://www.uzreport.news/society/s'havkat-mirziyoyev-15-may>
4. Korean Civil Act (제809조) – <https://elaw.klri.re.kr>
5. The Unconstitutionality of State Bans on Marriage Between First Cousins | Cardozo Law Review
6. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/08/01/consanguine-marriage/>
7. Durkheim, E. The Division of Labour in Society. Simon and Schuster, ISBN 0684836386, 9780684836386., 1997. 352 p.
8. Parsons, T. The Social System. New York: Free Press. 1937. 448 p.
9. https://www.advantour.com/kazakhstan/traditions/wedding.htm?utm_source
10. <https://gov.uz/uz/wcu/news/view/15745>
11. Berger, P. L., & Luckmann, T. The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge. Garden City, NY: Anchor Books. 1966.
12. WHO. (2010). Medical genetic services in developing countries: The ethical, legal and social implications. <https://www.who.int/publications/i/item/medical-genetic-services>
13. Sabirova, U. (2021). Foreign experience of university-enterprise cooperation: the development of a communicative environment. Thematics Journal of Social Sciences, 7(5), 35-47.
14. Normo'minovna, S. S. (2025). OILA ICHRA KO 'RINMAS TAHDID: NAZARIY YONDASHUVLAR PRIZMASIDA. PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI, 14(02), 41-45.
15. Tagaymuratova, G. T. (2023). Biotibbiyotda zamonaviy ilmiy yangiliklar va ularning axloqiy muammolari. Academic research in educational sciences, 5(NUU Conference 2), 677-684.